

YANGI KONSTITUTSIYA - TARAQQIYOT QOMUSI

Aliyeva Sabrina Xojiakbar qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasiga kiritilga o'zgarishlar, xotin-qizlarga berilayitgan imkoniyatlar, yangi tahrirdagi konstitutsiyasida qanday moddalar qo'shilganligi, buning xalqimizga qanchalar manfaatligi va har bir fuqaro o'z xaq- huquqlarini bilishi, mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy va dunyoviy mamlakatlardan biriga aylanganligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi, yangi tahrirdagi qonunlar, taraqqiyot qomusi, moddalar, xotin-qizlar.*

Yangi konstitutsiya - taraqqiyot qomusi. Darhaqiqat shunday, barcha mustaqil davlatlarning o'z huquq va erkinliklarini ta'minlovchi qonunlar mavjud. Ushbu qonunlar Konstitutsiyada moddalar sifatida jamlangan. Ularning barchasi esa inson manfaatiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston xalqi tomonidan "vakolatli vakillari timsolida", ya'ni parlament a'zolari – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli ravishda, mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahririni "yagona O'zbekiston xalqi" bevosita umumxalq referendumida – to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan qabul qildi. Demokratiyaning talabu taomili va ustunligi ham shunda. Respublika Prezidenti, parlamenti va Hukumati shu talablarga sodiq bo'lishlari shart. Bunda quyidagi masalalarga: inson huquqlarini ta'minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlash tizimida parlament rolini oshirish, davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etishga alohida e'tibor qaratiladi.

"Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi". Ushbu haqqoniy e'tirof O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 16-noyabrda imzolagan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishda alohida ta'kidlandi. Aslida ham, mamlakatimizda 2023 yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz berdi. Bu, o'z navbatida, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganidan yaqqol dalolatdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai», degan norma belgilab qo'yilgan. Bu norma timsolida

O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanligini anglatuvchi tamoyil o‘rnatilgan. etish va inson huquqlariga taalluqli normalari 3,5 barobar oshirildi. Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi mamlakatimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida mavjud bo‘lib, ulardan 40 tasi yangi konstitutsiyaviy huquqlardir. Ya’ni, O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi – tom ma’noda o‘zbekona “Inson huquqlari to‘g‘risidagi bill”ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor.

Ikkinchi tamoyil – demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalariga sadoqat. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqda "inson qadr-qimmati" tushunchasi har bir inson hurmatga loyiq ekanligini tushunishga asoslangan tenglik va shaxsiy erkinlik tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarda ta’kidlanganidek, erkinlik – shaxsning o‘z huquqlarini amalga oshirishida davlat aralashuvining yo‘qligini anglatadi. Shu ma’noda, konstitutsiyaviy islohotlarda huquqiy, ijtimoiy davlat imperativini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Birdamlik, adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish tamoyillari ustuvorligiga tayanildi. Asosiy qonunimizning “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” bobidagi 15-16-moddalar yangi va eski matnidagi normalarni o‘zaro qiyoslansa, bu fikrlarimiz qanchalik haqqoniy ekanligi o‘z tasdig‘ini topadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq:

“O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”. Shu o‘rinda 2023 yil 8 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinganini ta’kidlash lozim. Ushbu muhim hujjat talablari: yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta’minlash maqsadlariga qaratilgan. Farmonda belgilanganidek, “yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llaniladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat’iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy qoidalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug‘lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda. O‘zbekiston Prezidenti ta’kidlaganidek, “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz”.

Joriy yilning 1 dekabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi tashabbusi bilan “Konstitutsiya haftaligi” doirasida ochiq eshiklar kuni tadbiri o‘tkazildi. Quyi palata deputatlari, Yoshlar parlamenti va partiya “Yoshlar qanoti” a‘zolari ishtirokida “Yangi Konstitutsiya — taraqqiyot qomusi” mavzusida o‘tkazilgan tadbirda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va uning yoshlar hayotidagi ahamiyati haqida so‘z yuritildi. Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, ularni ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, huquqiy ongini yuksaltirish, kasb-hunarga o‘rgatish va bandligini ta’minlash, innovatsion g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham davlat tomonidan yoshlar huquqlari himoyalaniishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag‘batlantirilishi kafolatlab qo‘yildi. Inson manfaati, insonparvarlik tamoyili asosida qabul qilingan Bosh qomusimiz mamlakatimizda yangi rivojlanish davrini boshlab berdi. Asosiy qonunimizda inson qadri, uning huquq va qonuniy manfaatlari kafolatlari bilan bog‘liq belgilangan normalar mamlakatimizning chinakam demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Tadbirda so‘z olgan deputatlar yoshlarga yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ahamiyati, “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi” ijrosi doirasida mamlakatimizda olib borilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar haqida batafsil ma’lumotlar berdilar. Asosiy qonunimizda belgilangan konstitutsiyaviy normalar ijrosini so‘zsiz ta’minlash barcha sohalarda “inson qadri”ning tom ma’noda yuksalishiga, davlat va jamiyat hayotini “inson – jamiyat – davlat” degan tizimga asoslangan yangi va zamonaviy tarzda boshqarish imkonini berishi qayd etildi. Qizg‘in savol-javoblar davomida deputatlar yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini ta’minlashda, fuqarolar huquqlari kafolatlarining mustahkam huquqiy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egaligini ta’kidladilar. Tadbir davomida yoshlar Qonunchilik palatasi, jumladan, fraksiyalar va qo‘mitalar faoliyati, shuningdek, kutubxona va palata muzeyi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Xulosa qilib aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat’iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi. Konstitutsiyamizda Yevropa, Osiyo, Sharq va Amerika mintaqalarida joylashgan dunyo davlatlarining ijobiy konstitutsiyaviy tajribasi o‘z aksini topgan. Asosiy qonunimiz huquqshunos olimlar, siyosatshunoslar, ko‘plab xalqaro tashkilotlar mutaxassislari tomonidan sinchiklab o‘rganilgan bo‘lib, unga inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq normalari qo‘shimcha ravishda uyg‘unlashtirilgandir. Ishonchimiz komilki, xalqaro tashkilotlar vakillari va ekspertlar xolis va to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, O‘zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi "Inson sha’ni va qadr-qimmatini uchun" tamoyili asosida xalq farovonligini yanada yuksaltirish, inson, fuqarolik jamiyati va davlatni jadal rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://iiv.uz/news/yangi-tahrirdagi-konstitutsiya-mamlakatimizning-rivojlanish-yoli-va-inson-huquqlari-asosini-belgilab-berdi>
2. <https://parliament.gov.uz/news/yangi-tahrirdagi-konstitutsiya-farovon-hayotimiz-asosi>
3. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023.
5. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2023.
7. Karimov, I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
8. Jo‘rayev, M. Konstitutsiya – davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy asoslari. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2022.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi materiallari. – Toshkent, 2023.
10. Boboyev, X., va boshq. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2020.
11. Ilmiy maqolalar to‘plami. Konstitutsiyaviy islohotlar va ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2023.